“KANADA DAVLATINING DIPLOMATIK PROTOKOL VA ETIKET QOIDALARI”

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Xalqaro Munosabatlar” yo‘nalishi 3-kurs talabasi Aliyev Hojiakbar

Ilmiy rahbar: s.f.f.d. J.Sobirov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kanada davlatining diplomatik protokol va etiket tizimining nazariy-huquqiy asoslari hamda xalqaro diplomatik munosabatlardagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Kanadada rasmiy diplomatik marosimlarni tashkil etish mexanizmlari, davlatlararo muloqot madaniyati, diplomatik yozishmalar etiketi va protokol normalarining institutsional xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shu bilan birgalikda mamlakatning Anglo-sakson va fransuz multikultural siyosati hamda demokratik boshqaruv tamoyillarining diplomatik etiket tizimiga ko‘rsatadigan ta‘siri konseptual yondashuv asosida baholangan.

Kalit so‘zlar: Diplomatik protokol, diplomatik etiket, Kanada diplomatiyasi, xalqaro munosabatlar, diplomatik marosimlar, siyosiy kommunikatsiya, diplomatik yozishmalar, protokol normalari, davlat tashriflari, multikulturalizm, tashqi siyosat, diplomatik marosimlar.

KIRISH

Kanadaning tashqi aloqalari Kanadaning boshqa hukumatlar va davlatlar bilan munosabatlar tizimidir. Kanada global ishlardagi roli va ko‘p tomonlama va xalqaro yechimlarni izlashga moyilligi uchun o‘rta kuch sifatida tan olingan. Globallashuv Kanadaning tashqi siyosatiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatdi, mamlakat vositachilik orqali tinchlik va xavfsizlikni targ‘ib qilishi va rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko‘rsatishi bilan mashhurdir. Misol uchun Rossiya Ukraina urushi tufayli yuz minglab urush qochoqlari Kanadadan boshpana topdi. Bundan avval ham Kanada Yaqin sharqda va Afrikaning bir

qator mamlakatlarida urush va mojarolar sababli o‘z yurtini tark etgan qochoqlarga
boshpana bergandi. Bu orqali Kanada o‘zining xalqaro maydonda yana bir bir liberal tinchlik tarafdori va uning ximoyachisi ekanligini ko‘rsatib qo‘ygandi. Kanada diplomatiyasining oltin davri" Kanada tarixida ko‘pincha mutaxasislarning fikricha XX asrning o‘rtalari deb hisoblanib kelinadi, bu davrda Kanada o'zining tashqi aloqalari va diplomatik sa’y-harakatlarida yuqori darajadagi muvaffaqiyatlarga erishdi. Kanada ko'p tomonlama hamkorlikning kuchli tarafdori bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Mamlakat dunyoning yetakchi tinchlikparvar kuchlaridan biri bo‘lib, BMT nazorati ostida butun dunyo bo‘ylab tinchlikparvar missiyalarda ishtirok etadi. Kanadaning sobiq tashqi ishlar vaziri va keyinchalik bosh vazir bo'lgan Lester B. Pirson zamonaviy xalqaro tinchlikni saqlashga qo'shgan hissasi uchun e’irof etiladi va buning uchun u 1957-yilda Nobel tinchlik mukofotiga sazovor bo'lgan[1]. Kanada qurolsizlanishga sodiqdir va ayniqsa, 1997-yilda Ottavada piyodalarga qarshi minalardan foydalanish, zaxiralash, ishlab chiqarish va uzatishni taqiqlash to‘g‘risidagi konvensiyada yetakchilik qilgani bilan mashhur[2]. Kanada diplomatiyasi xalqaro diplomatik an’analar va umuminsoniy qadriyatlar hamda Britaniya monarxiyasi va Fransiya respublikasining tarixiy diplomatik ananalari tizimi ta’siri ostida shakllangan. Kanada Commonwealth of Nations (Millatlar Hamdo‘stligi)a’zosi bo‘lgani sababli uning protokol qoidalarida ingliz diplomatik urf-odatlari muhim o‘rin tutadi.

Kanada tashqi siyosatini uning tashqi ishlar vazirligi belgilab beradi. Vazirlikning rasmiy nomi Global Affairs Canada deb ataladi. Ushbu vazirlik Kanada davlatining tashqi siyosatini yurituvchi asosiy hukumat organi hisoblanadi. Vazirlikning bosh qarorgohi poytaxt Ottava shahrida joylashgan. Vazirlik bir qancha bo’limlardan iborat. Ularning eng muximlaridan biri protokol va etiket offisi hisoblanadi. Mazkur bo‘lim Kanada hukumati nomidan amalga

oshiriladigan diplomatik tadbirlar, xorijiy delegatsiyalar qabuli hamda xalqaro protokol normalariga rioya etilishini ta’minlaydi. Kanada o‘z diplomatik protokoli

[1] The Canadian Encyclopedia
https://thecanadianencyclopedia.ca/en
[2] Kanada tashqi ishlar vazirligining rasmiy sayti
https://international.canada.ca/en/global-affairs

bilan davlat vakillari o‘rtasidagi rasmiy uchrashuvlar, marosimlar va muzokaralarda tartib-intizomni saqlashga xizmat qilmoqda. Kanada diplomatiyasi asosiy tamoyillari hurmat, tenglik, navbat ustuvorligi va rasmiy tartibga rioya qilishi bilan ajralib turadi. Kanada tashqi siyosatida protokol qoidalariga amal qilish xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, davlat obro‘sini oshirish hamda diplomatik munosabatlarni barqaror rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kanada protokol va etiket doirasida 1961-yilgi Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi va 1963-yilgi Konsullik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasiga amal qilgan xolda amalga oshiradi[3]. Misol uchun Kanada diplomatik protokol va etiket qoidalariga ko‘ra salomlashish tartibi rasmiylik, hurmat va tenglik tamoyillariga asoslanadi. Kanada diplomatik an’analarida qo‘l berib ko‘rishish eng keng tarqalgan salomlashish shakli hisoblanadi. Rasmiy uchrashuvlarda avval lavozimi yuqori bo‘lgan shaxsga salom beriladi, so‘ngra boshqa ishtirokchilar bilan ko‘rishiladi. Erkak va ayol o‘rtasida salomlashishda tashabbus ko‘pincha ayol yoki martabasi yuqori shaxs tomonidan bildiriladi. Diplomatik muhitda salomlashish vaqtida tabassum qilish, ko‘z bilan aloqa o‘rnatish va o‘zini tanishtirish muhim hisoblanadi. Rasmiy tadbirlarda familiya bilan murojaat qilish, masalan “Mr.”, “Ms.” yoki lavozim nomini aytish protokol talablariga mos keladi. Kanada diplomatik etiketida ortiqcha hissiyot ko‘rsatish yoki norasmiy harakatlardan tiyilish tavsiya etiladi.

Kanada davlat bayrog‘i odob-axloq qoidalari ham konvensiyaga ko‘ra Kanada Davlat bayrog‘i va viloyatlar va hududlarning bayroqlari barcha kanadaliklar uchun sharaf va g‘urur ramzi hisoblanadi. Ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kerak. Kanadada bayroqlarni ko‘tarish tartibi qonunchilik bilan emas, balki o‘rnatilgan amaliyot bilan tartibga solinadi. Ushbu bo ‘limda keltirilgan odob-axloq qoidalari federal hukumat ko‘p yillar davomida rioya qilib kelayotgan xalqaro qoida va urf-odatlarga moslashishdir. Federal hukumat tomonidan qo‘llaniladigan qoidalar hech qanday tarzda shaxslar yoki tashkilotlar uchun majburiy emas; ular Kanada Davlat bayrog'ini va Kanadada boshqa bayroqlarni ko‘tarishni istagan barcha shaxslar uchun ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

[3] Kanada tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Protokol offisi https://www.international.gc.ca/protocol-protocole/index.aspx?

Kanadada federal darajada bayroqlardan foydalanishni turli organlar tartibga soladi. Kanada merosi departamenti Kanadada ham, undan tashqarida ham barcha federal binolar, mulklar va muassasalarda Kanada Davlat bayrog‘idan foydalanish bo‘yicha protokol va ko‘rsatmalarni ishlab chiqish uchun javobgardir. Kanada Qurolli Kuchlarining Tarix va merosi boshqarmasi harbiy bayroqlar va emblemalardan foydalanishni tartibga soladi. Diplomatik uchrashuvlarni tashkil etish tartibi esa muxim hisoblanib, Kanadada diplomatik uchrashuvlarni tashkil etish tartibi davlatning tashqi siyosatini yurituvchi asosiy organ Global Affairs Canada tomonidan belgilangan protokol qoidalari asosida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonni esa Protocol office of Canada yani protocol va etiket bo‘limi tomonidan tartibga solinadi. Ushbu tartib xalqaro diplomatik standartlar, shuningdek, Kanada davlatining konstitutsiyaviy monarxiya tizimi va Hamdo‘stlik an’analariga mos ravishda olib boriladi. Avvalo diplomatik uchrashuv tashabbuskori tomonidan rasmiy taklif yuboriladi. Kanadada bunday

takliflar odatda diplomatik nota yoki rasmiy maktub orqali yetkaziladi. Taklifda uchrashuvning maqsadi, sanasi, joyi, delegatsiya tarkibi va kun tartibi aniq ko‘rsatiladi. Taklif qabul qilingandan so‘ng, ikki tomon protokol xizmatlari uchrashuv tafsilotlarini kelishib oladi. Rasmiy uchrashuvlarni tashkil etishda martaba tartibi muhim hisoblanadi. Kanadada davlat nomidan o‘tkaziladigan yuqori darajadagi uchrashuvlarda mamlakat rahbari sifatida Kanada Qiroli nomi tilga olinadi, amaliy boshqaruv esa Bosh vazir va hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli delegatsiyalarni qabul qilishda lavozim darajasi, diplomatik maqom va xizmat unvoni qat’iy hisobga olinadi. Uchrashuv vaqtida davlat bayroqlarini joylashtirish, rasmiy salomlashish, qo‘l berib ko‘rishish, tarjimonlardan foydalanish, nutq so‘zlash tartibi kabi barcha masalalar oldindan protokol bo‘limi tomonidan rejalashtiriladi.

Kanadada rasmiy uchrashuvlarda odatda aniq vaqtga rioya qilish, muloyim muomala va tenglik tamoyiliga amal qilish muhim etiket qoidasi hisoblanadi. Uchrashuv yakunida ko‘pincha qo‘shma bayonot beriladi, memorandum yoki kelishuv imzolanadi, zarur hollarda matbuot anjumani tashkil etiladi. Shu tariqa Kanadada diplomatik uchrashuvlarni tashkil etish jarayoni yuqori darajada tartibga solingan bo‘lib, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini saqlashga xizmat qiladi. Kanadada rasmiy ziyofatlar diplomatik protokolning muhim qismidir va ularni tashkil etishda qat’iy tartib-qoidalar amal qilinadi. Ziyofatlar esa kanada poytaxtida joylashgan “Rideau Hall” va “Parliament Hill” binolarida o‘tqazilib kelinmoqda[4]. Bunday tadbirlar odatda davlat rahbari, Bosh vazir yoki Kanada Qiroli nomidan o‘tkaziladi va xalqaro mehmonlar, elchilar hamda yuqori martabali shaxslar ishtirok taklifa etiladi. Rasmiy ziyofat oldidan Kanada tashqi ishlar vazirligi tomonidan barcha ishtirokchilarga diplomatik nota yoki rasmiy taklif yuboriladi. Taklifda tadbir vaqti, joyi, kiyinish kodi va maxsus protokol qoidalari aniq ko‘rsatiladi. Kanadada rasmiy ziyofatlarda takliflar odatda TIV tomonidan ishtirokchilar

uchun bir necha hafta oldin yuboriladi. Bu yo‘l orqali mehmonlarni tadbirga oldinda tayyorlanish imkonini yaratadi! Tadbir davomida ovqatlanish tartibi va xizmat ko‘rsatish protokoli qat’iy amal qiladi, nutqlar qisqa va rasmiy bo‘lishi lozim, suratlarga ruxsat protokol tomonidan beriladi. Ziyofat yakunida qo‘shma bayonot beriladi, minnatdorchilik so‘zlari aytiladi yoki rasmiy fotosuratlar olinadi. Har bir ishtirokchi tadbirdan keyin protokol qoidalariga muvofiq minnatdorchilik bildiradi. Rasmiy ziyofatlar qat’iy tartibda o‘tkazilib, mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘si va diplomatik madaniyati namoyon etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Kanadada davlatchiligi va tashqi siyosati yani zamonaviy diplomatiya ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli davlat sifatida shakllangan bo‘lib, u xalqaro hamkorlik, tinchlikni saqlash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Kanada tashqi ishlar vazirligi orqali amalga oshiriladigan diplomatiya nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlarda ham faol. Kanada bugun dunyoning eng kuchli va global ta’sirga ega bo‘lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO va G7 kabi xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etadi va rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko‘rsatishda yetakchi o‘rin egallaydi. Zamonaviy kanadalik diplomatiya ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanadi, gender tengligi, madaniy xilma-xillik va ekologik masalalarni ham muhim yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqadi. Kanada diplomatlari konsullik xizmatlar, xalqaro biznes va migratsiya masalalarida ham samarali ishlaydi. Kanadadagi zamonaviy

[4] Karleton universitetining Kanada davlati protokol va etiket qoidalari kursi. https://carleton.ca/npsia-ptd/diplomatic-protocol-and-etiquette/

diplomatiya - o‘ziga xos Buyuk Britaniya va Fransiya davlatlarining qorishmasi va ularning birlashgan shakli bolib, bu xalqaro hamkorlik, inson huquqlari va

barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan, ochiq va madaniyatlararo aloqalarni hisobga oluvchi tizim bo‘lib, davlatning global maydondagi nufuzini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. The Canadian Encyclopedia

https://thecanadianencyclopedia.ca/en

2. Kanada tashqi ishlar vazirligining rasmiy sayti

   https://international.canada.ca/en/global-affairs

3. Kanada tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Protokol offisi

https://www.international.gc.ca/protocol-protocole/index.aspx?

4. Karleton universitetining Kanada davlati protokol va etiket qoidalari kursi.

   https://carleton.ca/npsia-ptd/diplomatic-protocol-and-etiquette/